

**JADID AYOLLARINI QUTQARISHDA XOTIN-QIZLAR  
TA'LIMIDAGI ISLOHATLARI**

*Dilshod Xaydarov*

*ISFT (International school of finance technology and science)  
instituti Samarqand filiali dotsenti*

*Eldor Avg'onov*

*ISFT (International school of finance technology and science)  
instituti Samarqand filiali magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jadid ma'rifatparvarlarining Turkistonda xotin-qizlarni ijtimoiy va ma'naviy jihatdan "qutqarish" yo'lida amalga oshirgan ta'limiy islohotlari chuqur tahlil qilinadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ayollar savodxonligining nihoyatda past darajada bo'lgani, ularning ijtimoiy hayotdan chetda qolib, asosan uy doirasida faoliyat yuritishga majbur etilgani jadidlar tomonidan keskin tanqid qilinadi. Maqolada jadidlarning ayollar ta'limini rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish g'oyasi asosiy yo'nalish sifatida yoritiladi. Xususan, ayolning oiladagi tarbiyaviy roli, uning ma'rifatli bo'lishi kelajak avlodning kamolotiga bevosita ta'sir etishi ilmiy asosda izohlanadi. Shuningdek, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy, Is'hoqxon Ibrat kabi jadid ziyolilarining qarashlari, ularning qizlar ta'limini tashkil etish, yangi usul maktablarini ochish, ayollarni ilm va kasb-hunarga jalb etish borasidagi fikrlari izchil tahlil etiladi. Jadid adabiyotida ayollar mavzusi, ularning huquqlari va jamiyatdagi o'rni masalasi muhim o'rin tutgani ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik, xotin-qizlar ta'limi, ma'rifatparvarlik, ayollar huquqlari, usuli jadid maktablari, ijtimoiy islohotlar, milliy uyg'onish, ayol savodxonligi, tarbiya, Turkiston jamiyati

Jadidlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda xotin-qizlarning savodxonlik darajasi juda ham past ekanligi, ular faqatgina otinoyilar o'z uylarida ochgan uy maktablarida o'qib, o'qish davomida 3-4 tagina diniy suralarni yodlab, so'ng ular uy ishlari bilan shug'ullanishi, nari borsa tikish –bichishni o'rganishi, keyin esa jamiyatda qattiq qonun-qoidaga aylangan erta oila qurish majburiyatini olib, shu bilan bir umr to'rt devor ichida yashashlarini qattiq tanqid qilib, erkak va ayollar teng haq-huquqqa ega ekanliklari, bola tarbiyasi bilan asosan onalar tarbiyalaganliklari bois, millat taqdiri uchun ularning bilim savyasini ko'tarish va yangi maktablar tashkil etishni yoqlab chiqdilar.

Jadid ma'rifatparvarlari asarlarida xotin-qizlar savodxonligi, oila bilan bog'liq masalalar muhim o'rin tutadi. Ularni tahlil qilish va hayotga tatbiq etish inson

ma'naviy barkamolligini ta'minlashda zarur ahamiyatga ega.

Muhammadsharif So'fizodaning "O'qunglar, onalar", Tavalloning "Hamshiralar tilindin" she'rlarida Turkiston ayollari "mute joriyalar"ga aylanib qolgani, ularning ma'rifatli bo'lishiga qarshilik ko'rsatayotgan johillar tanqid qilinadi, ma'rifatni keng yoyish targ'ib etiladi.

Jadidlar farzandlar tarbiyasi ayollar qo'lida ekanligi alohida ta'kidlaganlar, Sadridin Ayniy bu haqida quydagi fikrni bildirgan edi: "Agarda xotun kishi tarbiyat topgan, savodli bo'lsa, farzandini ham tarbiyat qilib taraqqiylik odami qiladur"<sup>1</sup>. 1910-yili bu "usuli jadid", ya'ni jadid maktablari yopildi. Ammo bu maktablarning yopilishi jadidlik harakatini susaytirmadi, aksincha yanada rivojlanishi uchun xizmat qildi. Bundan "ko'rinib turibdiki, jadidlik keng ijtimoiy masalalar va ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari surish maqsadida shakllangan ijtimoiy-falsafiy yo'nalish bo'lgan". Ammo jadidlik ta'limotiga munosabat faqatgina mustaqillik yillarida o'z mavqei tiklab bordi. Jadidlarning asosiy maqsadi dunyoviy ilmlarni egallagan yoshlarni tarbiyalash va ularning ma'naviy ongini oshirish, o'z vazifasini o'tay olmay qolgan eskicha ta'lim tizimiga yangicha innovatsion g'oyalarni singdirish edi. Bundan tashqari ular ijtimoiy hayot tarzini zamonaviy hayotga moslashtirish, milliy va zamonaviy armiyani joriy etish, diniy va dunyoviy, axloqiy normalarni inobatga olgan holda yangi qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish va joriy etish, davlatning boshqaruv tizimini isloh etish, hududiy tarqoqlikni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, jamiyat rivojlanishining barcha sohalari uchun milliy kadrlarni tayyorlash, davlatlar bilan diplomatik aloqalarni va tashqi siyosat konsepsiyasini o'rnatish kabi bir qancha masalalarni ilgari surdi.

Abdulla Avloniy xotin-qizlarni ilm olishga, kasb-hunar o'rganishga undab bunday yozadi: "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur?" degan savol keladur. Bu savolga "Birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir. Ikkinchisi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir" deb javob bersak, bir kishi deyurki, "Qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz boshi paxmoq, qo'li to'qmoq onalarni? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar<sup>2</sup>" der. Chunki, deydi u, "onalarimiz bilim va tarbiya o'rnig'a erlari ila urushib-talashub qizlarig'a mol qilmakni yaxshi ko'rurlar". U bu holga tushishimizga "ilmsizligimiz, dunyodin xabarsizligimiz"ni sabab qilib ko'rsatadi va qizlarga turli ziynatlar emas, aksincha ilm, hunar lozimligini uqtiradi: "Juda aqchangiz tashlabilmay turg'on bo'lsangiz, mahallangizdan biror qizlar maktabi ochib durustroq bir muallima keltirungiz". U o'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalarga ilm, hunar ko'proq zarurdir, deb hisoblaydi. Rauf Muzaffarzoda milliy matbuot qanday bo'lishi, qaysi yo'nalishda rivojlanishi haqida fikr bildirar ekan, "Erlarimiz ham, xotin-qizlarimiz ham maishat, tarbiya va

<sup>1</sup> Ayniy S., Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926

<sup>2</sup> Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. II jild. Toshkent, "Ma'naviyat", 1998. 37-bet

dunyo ila tanishtursun va onlarning fikrlarini ochub ahvoli olamdin xabar bersun<sup>3</sup>” deb yozadi. Quvonarli jihati shundaki, ushbu murojaatga javoban ayol mualliflarning Turkiston xotin-qizlari hayoti, kundalik turmushi bilan bog’liq voqelikni kengroq yoritgan maqolalari vujudga keldi. Masalan, Sora Muzaffariya o’lka xotin-qizlarining haq-huquqlari haqida bunday yozadi: “Bizda iste’dod ham bor, qobiliyat ham bor. Ong va fikr ham bor. Bir uy ichigina emas, ba’zi erlar ham o’rniga keltira olmaydigan, mamlakatlar idora qiladurg’on quvvat ham bor<sup>4</sup>”. U chor devor asirasiga aylangan, mute, kundosh azobidan ezilgan Turkiston ayollarini birlashishga, eskicha hayot tarzini buzib, yangicha hayot kechirishga chaqiradi. “Ammo xotin-qizlarimiz ko’p qo’zg’olmaydurlar, qo’zg’olsalar ham matlub darajada emas. Ey islom xotunlari! O’n uch asrlik tajriba bizga bunday yashashning natijasi nima va qanday bo’lishini endi ko’rsatdi”.

Is’hoqxon Ibrat “Tarixi madaniyat” asarida qizlarni o’qitish borasida quyidagilarni yozgan: “Ammoki qizlar maktabig’a kelsak, bu qiyinroq ko’rinadur. Xalqni vahshiyot va ota-onalar qizlarini ehtiyot qilishi, odamg’a, bir yerga yubormasligi, xalqni ilm qudratini bilmagani, xusus, xotunlarda taassufga g’arq bo’lub, bular bu taassufni yo’qotishga ellik yillar kerak bo’lishi ko’runadur. Munga ham yo’llar tofsa bo’lurki, otunbibilarni erlari targ’ib qilsalar, muallimalarda bir-ikki oylar yozuv va hisoblarni bilib olub, andin so’ng o’zlarini mahallasiga otunbibilardan muallima qilib, onchamuncha oylik berib tursalar. Bularga vaqti-vaqti ila katta muallima tefasidan qarab tursa, besh-o’n yillar ichinda har qishloqda besh-o’n muallima tayyor bo’lishini umid qilsa bo’lur<sup>5</sup>”.

Jadidlar oila va jamiyatda o’qimishli ayolning o’rni hamda mavqei o’zgacha ekanini tushuntirishga harakat qilganlar. Bu haqda manbalardan quyidagilarni bilish mumkin: “...xotunlarni o’qitmoq va alarning aqllariga jilo bermoq va erlari birla yaxshi muomala qilmoq va bolalarini tarbiyat qilmoq va zindakorchilikni yaxshi bilmaklari xususida ta’lim albatta zarurdir<sup>6</sup>”.

Jadid maktablarida ta’lim olgan ayollar o’zbek xotin-qizlarining ahvoli haqida qayg’urganlar. 1906-yilda qo’qonlik Tojiyaxon birinchi turk tili ayollar jurnaliga o’zbek ayollari nomidan xat yozib, turkistonlik musulmalarning ahvolidan shikoyat qilgan: “Hammaga ayon bo’lsa kerak: bugunda Rossiyada erkinlik, huquqlar, o’sish va islohotlarga katta ahamiyat berilyapti. Musulmon ayollari ham o’ziga xos haftalik nashrga ega va ular o’z fikr-mulohazalari, savollari va takliflarini yozib yuborishga qodirligi ma’lum. Bunga faqat barakallo deymiz! Ammo biz Rossiya markazida faoliyat ko’rsatayotgan musulmon ayollariga minnatdor holda bu yerda o’z vazifalarimizni ayni darajada bajara olishga imkonimiz yo’qligidan afsusdamiz.

<sup>3</sup> Muzaffarzoda R. Yangi yildan eski tilaklar // Sadoi Turkiston. 1914-yil 2-yanvar

<sup>4</sup> Muzaffariya S. Ayb o’zimizda // Sadoi Turkiston. 1914-yil 23-avgust

<sup>5</sup> Is’hoqxon Ibrat. Tarixi madaniyat // O’zFA SHI qo’lyozmalar fondi. Inv. №10117. To’raqo’rg’on, 1925. 137-bet.

<sup>6</sup> Bir musulmon // “Turkiston viloyati” gazetasi, 1912 yil 20 sentyabr

Boshqalar astoydil harakat qilarkan, biz Sartiya musulmon ayollari ko'p narsadan bexabar, hamon uyqudamiz. Ro'znomaning faqat bir necha satrlarida biz Sartiya musulmon ayollarining Qirim va Qozon ayollariga nisbatan o'z huquqlarimiz haqida bilimga ega emasligimiz haqida yozilsaydi! Agar bizning ahvolimiz haqida bayon qilinsa, kelajagimiz islohotlar orqali yaxshilanishi mumkin va biz o'z huquqlarimizga ega bo'lardik... Biz hammamiz ilm va ta'limga muhtojmiz! Hozir bilim olmasak, kelajakda ham buning iloji bo'lmaydi. Faqat yuzdan bir musulmon ayoli yozish va o'qishni bilishini ta'kidlash lozim... Biz o'z farzandlarimizni o'zimiz kabi ilmsiz qilib tarbiyalashni istamaymiz. Biz farzandlarimiz uchun qizlar maktabi ochishga urinayotgan no'g'ay o'qituvchilariga yordam qila olmayapmiz. Bizning ilm olishga bo'lgan urinishlarimiz bizga yo'l ochib bermay, qiyinchilik tug'dirib, dong qotib qolganimiz tan olinishi zarur. Agar shu yo'lda davom etadigan bo'lsak, bir kun biz musulmon ayollarining nomi tarix sahifalarida nafrat bilan tilga olinishi tayin<sup>7</sup>".

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda xotin-qizlar uchun amalga oshirilayotgan barcha islohotlar va ularga berilgan barcha imkoniyatlarning asosi, poydevori bu jadidlarning harakatlarida edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ayniy, S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. – Moskva, 1926. 12-b
2. Avloniy, A. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. 2-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 37-b.
3. Muzaffarzoda, R. Yangi yildan eski tilaklar // Sadoi Turkiston. – 1914. – 2-yanvar. 35-b
4. Muzaffariya, S. Ayb o'zimizda // Sadoi Turkiston. – 1914. – 23-avgust. 27-b
5. Ibrat, I. Tarixi madaniyat // O'zFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi. – Inv. №10117. – To'rao'rg'on, 1925. – 137-b.
6. Bir musulmon. // Turkiston viloyati gazetasi. – 1912. – 20-sentyabr. 68-b
7. Muzaffarzoda, R. Yangi yildan eski tilaklar // Sadoi Turkiston. – 1914. – 2-yanvar. 58-b

<sup>7</sup> Muzaffarzoda R. Yangi yildan eski tilaklar // Sadoi Turkiston. 1914-yil 2-yanvar